

<https://www.gazeta.uz/oz/2025/10/15/turizm/>

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 16-martdagi 105-son qarori. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish va turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. URL: <https://lex.uz/docs/-7851788>

3. Chust tumani // Wikipedia. URL: https://uz.wikipedia.org/wiki/Chust_tumani

2. Xalqaro gullar festivali yakunlandi // O‘zbekiston Milliy axborot agentligi. URL: https://uza.uz/oz/posts/xalqaro-gullar-festivali-yakunlandi_610229

3. Namanganda hunarmandchilik yo‘nalishida 5 mingga yaqin yangi ish o‘rni yaratildi // O‘zbekiston Milliy axborot agentligi. URL: https://uza.uz/oz/posts/namanganda-hunarmandchilik-yonalishida-5-mingga-yaqin-yangi-ish-orni-yaratildi_301397

4. Ikromova F.Y. Boshimda tursa o‘zbekim do‘ppisi. // “Science and Innovation” International Scientific Journal. – 2022. – № 4. B. 53-56. URL: <https://scientists.uz/view?id=858>

5. Namangan haqiqati. Chust do‘ppisi: milliy brendga aylangan meros // Namangan haqiqati gazetasi. – 12-bet.

6. O‘zbekiston hunarmandchiligi va amaliy san’ati ensiklopediyasi. 1-qism. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2016.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. URL: <https://president.uz/oz/lists/view/8692>

8. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Turizm statistikasiga oid ko‘rsatkichlar. URL: <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/53640-turizm-statistikasiga-oid-ko-rsatkichlar>

9. World Tourism Organization. Recommendations on Tourism Statistics. – Madrid: World Tourism Organization, 1993.

Muhlisa TOSHEMIROVA,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi magistranti,
Ilmiy rahbar: Tolib OTABOYEV,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,
“Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi” kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD

SURXONDARYO VILOYATIDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatining yashil iqtisodiyotdagi o‘rni va salohiyati ko‘rsatilgan. Shuningdek, yashil iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari yashil turizm, suv resurslari, qayta tiklanuvchi energiya manbalari haqida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, qayta tiklanuvchi energiya, suv resurslari, yashil turizm, barqaror qishloq xo‘jaligi.

Аннотация. В данной статье показаны роль и потенциал Сурхандарьинской области в зелёной экономике. Также освещены перспективы развития зелёной экономики, включая

зелёный туризм, водные ресурсы и возобновляемые источники энергии.


Ключевые слова: зелёная экономика, возобновляемая энергия, водные ресурсы, зелёный туризм, устойчивое сельское хозяйство.

Abstract. This article highlights the role and potential of the Surkhondaryo region in the green economy. It also discusses the prospects for developing the green economy through green tourism, water resources, and renewable energy sources.

Keywords: green economy, renewable energy, water resources, green tourism, sustainable agriculture.

Surxondaryo viloyati O‘zbekistonning janubida joylashgan bo‘lib, maydoni 20,8 ming kv.km, aholisi 2,73 million kishini tashkil etadi. Viloyat O‘zbekistonning 14 ta ma‘muriy birligidan biri bo‘lib, 1 ta shahar, 14 ta tuman va 2 ta shaharcha o‘z ichiga oladi. Termiz viloyat markazi hisoblanadi.

Viloyat yalpi ichki mahsuloti (YIHM) so‘nggi yillarda izchil o‘sib bormoqda. 2023-yilda YIHM hajmi 21,4 trln so‘mni tashkil etib, 2019-yilga nisbatan 55% ko‘paydi. O‘shishning asosiy omillari: qurilish faolligining oshishi, sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi va eksport salohiyatining kengayishi hisoblanadi³⁰⁷.




1-rasm. YIHM dinamikasi (2019–2023) va tarmoq tuzilishi (2023)³⁰⁸

Surxondaryo viloyati O‘rta Osiyo mintaqasida tabiiy resurslar boyligi jihatidan alohida o‘rin tutadi. Viloyatning geografik joylashuvi – janubiy Toshkent tog‘ tizmasi va Amudaryo vodiysi o‘rtasidagi mintaqada – xilma-xil tabiiy sharoitlarni yuzaga keltirgan. Yer, suv, iqlim va mineral resurslar viloyat iqtisodiyotining asosini tashkil etadi.

Surxondaryo viloyatidagi ekologik muammolar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularni kompleks hal etmasdan iqtisodiy rivojlanishni barqaror asosga qo‘yish imkonsiz. Viloyat O‘rta Osiyo mintaqasida ekologik holat eng murakkab hududlardan biri hisoblanib, bu holat bir qator tarixiy, tabiiy va antropogen omillar bilan belgilanadi.

³⁰⁷ Jahon banki. Suv resurslari boshqaruvi: O‘rta Osiyo mintaqasi. – Washington: World Bank, 2021. – 148 p.


³⁰⁸ Muallif ishlanmasi.



2-rasm. Ekologik muammolar darajasi bo'yicha radar diagrammasi (0–100 ball, 2023)³⁰⁹

2-rasmdan ko'rinadiki, tuproq sho'rlanishi (75 ball) va yer degradatsiyasi (72 ball) eng og'ir muammolar hisoblanadi. Iqlim o'zgarishi ta'siri (70 ball) va suv tanqisligi (68 ball) ham yuksak darajada muammoli ko'rsatkichlarni namoyon etmoqda

Yashil iqtisodiyot elementlarining Surxondaryo viloyatida joriy etilish darajasini baholash uchun oltita asosiy yo'nalish bo'yicha qiyosiy tahlil o'tkazildi: qayta tiklanuvchi energetika, barqaror qishloq xo'jaligi, yashil transport, aylanma iqtisodiyot, yashil qurilish va ekologik turizm.



3-rasm. Yashil iqtisodiyot elementlarining joriy etilish darajasi: hozir va 2030 maqsadi (%)³¹⁰.

Barqaror qishloq xo'jaligi (25%) va ekologik turizm (20%) yo'nalishlari

³⁰⁹Jahon banki. Suv resurslari boshqaruvi: O'rta Osiyo mintaqasi. – Washington: World Bank, 2021. – 148 p.

³¹⁰ O'sha manba.

nisbatan yuqoriroq ko'rsatkichga ega. Biroq barcha yo'nalishlar bo'yicha 2030-yil maqsadidan katta farq mavjud. Eng sezilarli tafovut aylanma iqtisodiyot (hozir 8%, maqsad 45%) va yashil transportda (12% va 50%) kuzatilmoqda³¹¹.

Yashil iqtisodiyot elementlarini joriy etishga qaratilgan qator dasturlar viloyatda allaqachon amalga oshirilmoqda. Jumladan, «Yashil makon» dasturi doirasida 2022–2023-yillar davomida 1,2 million tup daraxt o'tkazildi; Termiz shahrida 12 ta yashil hovli loyihasi bajarildi; Denov va Boysun tumanlarida 8 ta tomchilatib sug'orish pilot loyihasi ishga tushirildi.

Barqaror qishloq xo'jaligi sohasida organik dehqonchilikka qiziqish oshmoqda. 2023-yil holatiga ko'ra, viloyatda 142 ta fermer xo'jaligi organik sertifikatlash jarayonida, 18 ming gektarda organik usulda dehqonchilik qilinmoqda. Bu 2019-yilga nisbatan 3,6 barobar ko'pdir³¹².

Surxondaryo viloyatida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish yashil iqtisodiyotga o'tishning eng muhim va strategik yo'nalishi hisoblanadi. II bobdagi tahlil shuni ko'rsatdiki, viloyatda texnik jihatdan foydalanish mumkin bo'lgan QTE potentsiali 8 930 MVt ni tashkil etadi, ammo hozirda uning atigi 6,4% i o'zlashtirilib, 571 MVt quvvat ishga tushirilgan. Bu ulkan potentsialdan to'liq foydalanish viloyat energetikasini tubdan o'zgartirishi mumkin³¹³.

Quyosh energetikasi ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Viloyat hududi bo'yicha o'tkazilgan metrologik kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, yiliga 1 m² yuzaga o'rtacha 1 700 kVt-soat quyosh energiyasi tushadi. Bu ko'rsatkich G'arbiy Yevropaning eng quyoshli nuqtalaridan 1,5–2 barobar yuqori. Sherobod, Muzrabot, Termiz va Denov tumanlari eng istiqbolli hududlar sifatida ajralib turadi³¹⁴.

Surxondaryo viloyatida suv resurslaridan samarali foydalanish yashil iqtisodiyotning dolzarb yo'nalishi hisoblanadi. II bobda ko'rsatilganidek, viloyatda sug'orish samaradorligi atigi 55%, yiliga 1,2 mlrd. m³ suv isrof bo'lmoqda, bu esa 37,5% ga teng. Iqlim o'zgarishi sharoitida suv taqchilligining kuchayishi bu muammoni yanada o'tkrashtirmoqda³¹⁵.

Ekologik turizm – tabiat bilan uyg'un, atrof-muhitga minimal zarar yetkazgan holda amalga oshiriladigan, mahalliy jamiyat iqtisodiyotini qo'llab-quvvatlaydigan turizm shakli. UNDP (2021) ta'rifiga ko'ra, ekologik turizm sayyorani asrab-avaylagan holda bilim olish, hordiq chiqarish va mahalliy madaniyatni o'rganish imkonini beruvchi barqaror sayohat shaklidir³¹⁶.

Surxondaryo viloyatida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun 2024–2030-yillar davomida taxminan 3,2–3,8 mlrd. dollar hajmida sarmoya talab etiladi. Ushbu sarmoyani jalb etish uchun ko'p kanalli va turli-xil moliyaviy mexanizmlar tizimini shakllantirish zarur³¹⁷.

³¹¹ Jahon banki. Suv resurslari boshqaruvi: O'rta Osiyo mintaqasi. – Washington: World Bank, 2021. – 148 p.

³¹² OECD. Towards Green Growth. – Paris: OECD Publishing, 2011. – 144 p.

³¹³ OECD. Towards Green Growth. – Paris: OECD Publishing, 2011. – 144 p.

³¹⁴ OECD. Green Growth Policy Review of Uzbekistan. – Paris: OECD Publishing, 2022. – 216 p.

³¹⁵ World Economic Forum. Fourth Industrial Revolution in Agriculture: Digital Farming Technologies. – Geneva: WEF, 2022. – 96 p.

³¹⁶ O'zbekiston Milliy axborot agentligi (UzA): <https://uza.uz> [murojaat sanasi: 2024-yil 25-yanvar]

³¹⁷ Brundtland G.H. Our Common Future: Report of the World Commission on Environment and Development. – Oxford: Oxford University Press, 1987. – 374 p.

Surxondaryo viloyatida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqildi. Asosiy xulosalar:

1. QTE sohasida 8 ta yirik loyiha asosida 2030-yilga kelib 1 837 MVt quvvat o'rnatish, viloyat energiyasida qayta tiklanuvchi ulushni 3,8% dan 35–40% gacha oshirish va yiliga 680 mln. dollar fosil yoqilg'i tejash realistik maqsad sifatida asoslab berildi.

2. Organik qishloq xo'jaligini 18 ming gektardan 180 ming gektarga (ekin maydonining 37,5%) kengaytirish, 1 200 fermer xo'jaligini organik sertifikatlash va eksportni 310 mln. dollarga yetkazish uchun 6 ta aniq dastur taklif etildi.

3. Suv tejash sohasida 645 mln. dollar sarmoya asosida yiliga 1,0 mlrd. m³ suv tejash, sug'orish samaradorligini 55% dan 78–82% ga oshirish va 80 ming gektar sho'rlangan yerni sog'lomlashtirish yo'l xaritasi ishlab chiqildi.

4. 10 ta moliyaviy mexanizm (yashil obligatsiyalar, GCF, ADB, AIIB, PPP va boshqalar) asosida 3,3 mlrd. dollar yashil sarmoya jalb etish tizimi taklif etildi; davlat kafolatlari va rag'batlantirish vositalarining aniq tizimi belgilandi.

5. 7 ta ekologik turizm klasteri asosida 2030-yilga kelib 250 ming turist jalb etish va 45 mlrd. so'm daromad olish imkoniyati tahlil qilindi; 5 500 yangi ish o'rni va ekosistema saqlanishiga moddiy asos yaratish istiqboli asoslandi.

6. Barcha 5 yo'nalish birgalikda amalga oshirilsa, viloyat YIHM i qo'shimcha 35–40% ga o'sishi, 58 000 dan ortiq yangi ish o'rni yaratilishi va CO₂ emissiyasi yiliga 2,5 mln. tonnaga kamayishi prognoz qilinadi.

Iroda OTAXONOVA,
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi magistranti,
Ilmiy rahbar: Ravshan ABDULLAYEV,
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,
“Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi” kafedrasi professori, i.f.d.

O'ZBEKISTONDA TURISTIK FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MOBIL MARKETINGNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI VA USTUVOR YO'NALISHLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda turistik faoliyat samaradorligini oshirishda mobil marketingning o'rni, ahamiyati va rivojlantirish istiqbollari tahlil qilinadi. Xususan, raqamli texnologiyalar va mobil qurilmalar orqali sayyohlarga xizmat ko'rsatishning zamonaviy usullari, ularning afzalliklari hamda amaliy qo'llanilishi yoritilgan. Shuningdek, mobil marketingni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, jumladan mobil ilovalar, geolokatsiya xizmatlari, ijtimoiy tarmoqlar orqali targ'ibot va raqamli to'lov tizimlarining ahamiyati ochib beriladi. Maqolada sohaga oid mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ham ilgari surilgan. Natijada mobil marketingdan samarali foydalanish orqali mamlakat turizm salohiyatini oshirish imkoniyatlari asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Mobil marketing, turizm, raqamli texnologiyalar, turistik xizmatlar, mobil ilovalar, geolokatsiya, ijtimoiy tarmoqlar, turizm samaradorligi, innovatsiyalar, foydalanuvchi tajribasi.